

**VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI**

**SAIDQULOVA UMIDA ERKIN QIZI**

**XO'JANAZAROVA GO'ZAL NURIDDINOVNA**

**TURSUNQULOVA SEVARA ODILJON QIZI**

**XOJIYEVA AZIZA AXTAM QIZI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

*3-bosqich talabalari*

**Annotatsiya:** Maqolada shaxsdagi mavjud axloqiy rivojlanishi va bu rivojlanishida yuzaga keladigan ziddiyatlardan chiqib keta olish bilan bog'liq tushunchalar berilgan. O'z ehtiyojlarini qondirilishi bilan bo'gлиq yolg'on gapirishlari, tengdoshlarini orasida tan olinishga bo'lган intilishlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan

**Kalit so'z:** qadriyat, soxta, yo'lg'on, hukmdor, agressiya, ziddiyat, muammo, ehtiyoj, rivijlanish

Har qanday rivojlanish jarayonida bo'lganidek axloqiy rivojlanishda ham ziddiyatlar kurashi bo'lib o'tadi. Bizning hayotiy tajribamizdan bevosita qanday insoniy qadriyatlar shaxsiy ijobiy yutuqlarni belgilashi, ziddiyatlar kurashi qanday kechishi hamda qanday qilib shaxsda salbiy tuzilmalar paydo bo'lishini kuzatish imkoniyati chetda qoladi. Salbiy tuzilmalar — xatti-harakatning sotsial ko'rinishi hamda shaxsning muayyan xislatlari — mohiyatiga ko'ra rivojlanish mahsuli bo'lib ular maxsus o'rganishni ta- lab qiladi.

Agar bola tan olinish ehtiyojini his qilmasa boshqa insonlar bilan muloqotda rivojlanishi nomukammal bo'ladi. Biroq shu ehtiyojni amalga oshirish ham salbiy holatlarga olib kelishi mum-kin, masalan, yolg'on — g'arazli maqsadda haqiqatni yashirish yoki hasad — boshqa birovning yutug'idan alamzadalik hissi. Al- batta, yolg'on tan olinishga bo'lган ijtimoiy ehtiyoj bilan

birga yurishi mumkin, ammo bu ehtiyojning zaruriy qismi hisoblan- maydi. Ontogenezda, bolaning ichki holati endigina jamiyat tomonidan berilgan qoliplarga o‘rganayotgan paytda yolg‘on paydo bo‘lishi mumkin. Shaxsda salbiy tuzilmalarning paydo bo‘lish sabablaridan biri ijtimoiy jihatdan yetilmagan, shaxsning tan olinish ehtiyoji hisoblanishi mumkin.

Kundalik hayot doimiy tarzda bolani turli holatlar bilan to‘qnashtiradi hamda ularning har birini axloqiy me’yorlar orqali osonlik bilan hal qiladi, boshqalari esa u tomondan qoidalarni buzish va yolg‘on ishlatilishiga turtki bo‘ladi. Ular obyektiv jihatdan, ya’ni axloqiy me’yorlarni bolaning impulsiv istaklari bilan mos kelmasligi kabi muammoli vaziyatlardir. Bunday muammoli vaziyatga tushgan bola uni quyidagicha hal qilishi mumkin:

- 1) qoidani bajarish;
- 2) o‘z ehtiyojini qondirish va shu bilan birga qoidani buzish hamda buni kattalardan yashirmaslik;
- 3) o‘z ehtiyojini qondirish va shu bilan birga qoidani buzishi, lekin jazolanishdan qo‘rqib uni yashirish. Uchinchi turdag‘i harakat yolg‘onning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Bolalar yolg‘oni. Yolg‘on haqiqatning ataylab yashirilishi sifatida bolaning ma’lum bir kattalar tomonidan o‘rnatilgan qoi- dalarga bo‘ysunmasligini tushunib yetganida sodir bo‘ladi. Bunday vaziyatlar bola uchun «ikkilangan motivatsiya» vaziyatlariga aylanadi. Bola kattalar tomonidan tan olinishga intilib, qoidani buzib, ko‘p hollarda yolg‘on ishlatadi.

Hayotda yolg‘onchilik kabi bunday salbiy holatlar bilan kurash ko‘p hollarda kattalar tomonidan bolani yolg‘onga yetaklovchi intilishi darajasining pasayishiga olib keladi. Masalan, «Sen yolg‘onchisan!» kabi. Kuchli oshkor etilgan yolg‘on ijobiy natijalarga olib kelmaydi. Katta odam bolaga ishonch- ni, bundan keyin yolg‘on orqali o‘zini kamsitmasligiga ishon- chini singdira olishi kerak. Bola tarbiyasida asosiy e’tibor tan olinishga bo‘lgan intilishni pasaytirishga emas, balki bu ehti- yojni rivojlantirishning to‘g‘ri yo‘nalishini bera olishga qaratila- di. Bola intilishlari bilan birga boruvchi salbiy tuzilmalarni olib

tashlash yo'llarini topish, salbiy to'siqlarni ongli ravishda yengishni o'rgatish kerak.

Yolg'on bolada boshqa insonlarga nisbatan rostgo'ylik muno- sabatlariga ehtiyojining shakllanmaganligi, haqgo'ylik, boshqa insonlar nazarida bolaning sifatini belgilovchi me'yor sifatida e'tirof etilmasligi natijasida rivojlanadi. Bolaga va'da qilingan narsani bermaslik ham uning ko'ngliga yolg'onchilik urug'ini sochishi mumkin.

Tengdoshlari orasida tan olinishga intilish. Kattalar bilan muloqot jarayonida yuzaga keladigan ehtiyojlar tengdoshlari orasida ham tan olinishga o'ta boshlaydi. Bunday holatda tan olinishga ehtiyoj prinsipial yangi asoslarda rivojlnana boshlaydi: agar kattalar bolaning yutuqlarini qo'llashga harakat qilsalar, tengdosh- lar murakkab munosabatga kirishadilar va bunda o'zaro qo'llash va raqobatlashish holatlari muvofiqlashadi. O'yin asosiy faoliyat hisoblanar ekan, intilishlar birinchi navbatda o'yinning o'zida, borishidagi real munosabatlarda namoyon bo'ladi.

O'yinda tan olinishga ehtiyoj boshqa ma'noda namoyon bo'ladi: bir tomondan bola «hammaga o'xshash»ga, boshqa tomondan esa «hammadan zo'r» bo'lishga intiladi. Bolalar tengdoshlarining yutuqlari va harakat shakllariga moslashadilar. «Hammaga o'xshash»ga intilish ma'lum darajada bolaning rivojlanishiga turtki bo'ladi va uni umumiyl o'rta darajaga olib chiqadi.

Tan olinishga intilish «hammadan yaxshiroq bo'lish»ga intilishda ham ko'rinishi mumkin. Bunday turdag'i tan olinishga ehtiyoj o'yinda ma'lum bir mavqe yoki rolga intilish orqali ifo- dalanadi. Shuning uchun bolalarning o'zlariga yoqqan rolga intilishini muhokama qilishdan oldin, bola harakatlarining kamida ikki tarkibiy qismini tahlil qilish kerak: istagan rolga intilish va bu intilishni amalga oshirish imkoniyatlarini tushunish qobiliyati. Bu masalani tadqiq qilish uchun bolani qo'g'irchoq-dublor bilan almashtirish usulidan foydalanildi va uning yordamida bolalarning barcha uchun yoqimli rolga intilishlari aniqlandi.

Tadqiqot sujetli-rolli o'yinning tabiiy sharoitlarida o'tkazildi. Barcha sotsiometriya mavqeidagi besh-yetti yoshdagi bolalar tad- qiq qilindi. Tajriba

uchun uch guruh tiplari shakllantirildi. Birinchi guruh — o‘yin «yulduzlari»; ikkinchisi — faqat mashhur bo‘lmaiganlar; uchinchisi istalgan real guruh bo‘yicha (bu guruh «yulduzlar», mashhurlar va mashhur bo‘lmaiganlardan iborat). Besh kishidan iborat har bir guruhga tadqiqotchi o‘yindagi rol haqida gapirib berdi. Bunda u bosh rolni alohida ta’kidladi.

***Birinchi tayyorgarlik bosqichi.*** Tadqiqotchi barcha guruh tiplarida rollarni taqsimladi. Bolalar berilgan sujetni o‘ynashlari kerak edi.

***Ikkinci tayyorgarlik bosqichi.*** Tadqiqotchi rollarni o‘z egalariga qoldirgan holda qayta taqsimlaydi. Bu safar o‘yin qo‘g‘irchoq-dublorlar yordamida o‘tdi. Har bir o‘yinchini o‘zining hamda bir- birlarining qo‘g‘irchoqlarini bilar edilar (qo‘g‘irchoqlar bolaning xususiyatlari, jinsiga muvofiq tanlangan, bundan tashqari har bir qo‘g‘irchoqda o‘zi almashtirilgan bolaning fotosurati yopishtirilgan). Bolalar bu sujetni qo‘g‘irchoqlar orqali o‘ynashlari kerak edi.

***Uchinchi — asosiy bosqich.*** Taqsimlash huquqi har bir o‘yinchiga berildi. Rollar taqsimoti qo‘g‘irchoq-dublorlar orasida guvohlar- siz, ya’ni manfaatdor o‘yin ishtirokchilarining yo‘qligida amalga oshirildi. Tajriba quyidagicha bo‘ldi. Tajriba xonasida beshta bolalar stulida qo‘g‘irchoq-dublorlar turadi. Har bir bola qo‘g‘irchoq-dublorlarga rol berish uchun ularning yoniga keladi. Bu uchun u qo‘g‘irchoq-dublorlarni rol bo‘yicha belgilangan stulchalarga o‘tqazib qo‘yishi kerak edi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, qo‘g‘irchoqlarning almashtirilishi bolaning o‘yindagi rolga nisbatan haqiqiy intilishini aniq- lab berdi. Ta’kidlash kerakki, rolga ataylab alohida ahamiyat berilsa, aksariyat bolalar unga intiladilar. Intilish bolaning guruhdagi mavqeい va uning o‘yinchini tengdoshlarini boshqarish bo‘yicha real imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lmaydi. «Boshqalardan zo‘r bo‘lish»ga intilish yutuqqa erishish motivini yaratadi, iordaning rivojlanishi hamda refleksiya shakllanishining shartlaridan biri hisoblanadi, ya’ni o‘z yutuq va kamchiliklarini anglab yetadi.

Katta bog‘cha yoshida tengdoshlar bilan o‘zaro harakat jarayonida tan olinishga bo‘lgan ehtiyoj guruhda o‘z tengdosh- lari orasida barcha uchun

ahamiyatli o‘rinni egallashga intilish orqali ifodalanadi. Biroq bu holatlar yuzaki ko‘rinmaydi, chunki barcha uchun ahamiyatli o‘rinni egallashga intilishini bola atrofdagilardan yashiradi. Ijtimoiy rivojlanish hayotiy pozitsiya, dunyoqarash darajasiga ko‘tarilmagan sharoitlarda intilishlar shaxslararo munosabatlar darajasida ishlab chiqiladi. Bu yerda bola shaxsining ijobiylar yutug‘iga shunday salbiy holatlar hamroh bo‘lishi mumkinki, ularni hattoki tarbiyachilarining o‘zi kutmagan bo‘ladi. Boshqa xatti-harakatlar orqali amalga oshiriladigan intilishlar «hamma kabi bo‘lish», «hammadan zo‘r bo‘lish» ularning asosi bo‘lib hisoblanadi.

Demak, uch-to‘rt yoshli bolalar odatda tengdoshlarining gaplariga ko‘p e’tibor bermaydilar, o‘zlarining his-tuyg‘ulariga tayanadilar. Bolalarning boshqalar fikriga qo‘silmagan tarzda o‘z fikrini bayon eta olishi xatti-harakat tanloving mustaqilligi bilan emas, balki jamoaga qarab ish qilishning yo‘qligi bilan ifo- dalanadi. Agar kichik bog‘cha yoshidagi bolalar guruh ortidan ergashsa, demak bu bolaning katta odam tomonidan berilgan savolni tushunib yetmaganligi, o‘sha paytda boshqa bir yumush bilan bandligi hamda savolning mohiyatini tushunib yetmaganligi oqibati sifatida qaraladi va bu teskari reaksiya beradi.

Besh-olti yoshda bolalar tengdoshlarining fikrini faol tinglay boshlaydilar. Ularning nega ular haqiqatdan yo‘q narsani takrorlashlariga bo‘lgan tushuntirishlari bir xil bo‘ladi: «Chunki bolalar shunaqa deyishdi», «Ular shunaqa deyishdi» kabi. Bunda bola o‘zini xavotirli his qila boshlaydi. Bu vaqtida sujetli o‘yinlar tengdoshga nisbatan xuddi muloqot sherigi sifatida umumiy munosabatni shakllantiradi hamda uning fikri bilan bola doimiy qo‘silishi kerak bo‘ladi.

Olti-yetti yoshdagi bolalar o‘zlariga yaxshi tanish bo‘lgan tengdoshlari orasida o‘zlarini yetarli darajada mustaqil his qiladilar, ammo notanishlar orasida, qoida bo‘yicha komformizm- ni his qiladilar. Tajribadan so‘ng, ular o‘z bilimlariga zid ravishda boshqalarga ergashgan paytida, ular kattalarga haqiqatdan ham qanday qilib to‘g‘ri javob berish kerakligini ko‘rsatishga harakat qiladilar. Tadqiqotdan so‘ng bola: «Nega ular bunday noto‘g‘ri javob berishdi?

Sho‘rni shirin, qizilni ko‘k deyishdi». «Nega sen o‘zing bunaqa deding?», «Men? Hamma shunday degani uchun».

Katta bog‘cha yoshida o‘yindagi bosh rolga, sport musobaqalaridagi g‘oliblikka va munosabatlardagi liderlikka va boshqa o‘xhash vaziyatlarga intilish davomida bolalarda hasad paydo bo‘lishi mumkin. U bolalarda, birinchi navbatda, tashqi ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy ierarxiya (Kim boshliq?) orqali paydo bo‘ladi. Liderlikka intilish bolani qo‘g‘irchoq-dublor bilan almashtirish usuli orqali o‘rganildi (yuqorida qarang). Ma’lum bo‘lishicha, besh-yetti yoshdagi bolalar liderlikka bo‘lgan inti- lishini faqatgina tajriba vaziyatida ochiq namoyon qilishdi. Rol- larni taqsimlashda boshqalarning yonida, ba’zi bolalar bosh rolni boshqa tengdoshiga so‘zsiz beradilar, bir qism bolalar bosh rolga o‘zining haqi borligini aytadi. Ko‘pchilik rollarni taqsimlashda bilvosita harakat qiladi: bola, rolni taqsimlash haqidan foydalanib, bir bolani tanlaydi, lekin bunda u bola ham uni tanlashini shart qo‘yadi. Bolalarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari o‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiya qobiliyatlarining rivojlanishiga olib keladi. Bu qobiliyatlarning shakllanishi zamirida bolalarning teng- doshlari orasida tan olinishga intilishi rivojlanadi.

Bola tavakkal qilishdan qo‘rqadi, u o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan o‘rinni egallashda rad javobini olishdan qochadi. Biroq tengdoshlar orasida o‘zi uchun ahamiyatli o‘ringa intilish u uchun shaxsiy ahamiyat kasb etadi. Eng yaxshi o‘ringa bo‘lgan intilishning so‘ndirilishi hasadni keltirib chiqaradi.

Maxsus qurilgan «Omad o‘yini» vaziyatlarida hasadning paydo bo‘lishi kuzatilgan. Bu maqsadda uch boladan iborat guruhlar tashkil qilindi. Tajriba besh, olti va yetti yoshdagi bolalarda o‘tkaziladi. Bolalar doirani (ruletka) aylantirib ballar oladilar va o‘zlarining toshlarini finish sari yo‘naltiradilar. Ular muvaffaqiyat omadlilik natijasida keladi deb o‘ylaydilar. Biroq tadqiqotchi kim yutishini o‘zi hal qiladi. Har safar yutgan bola qolgan boy bergen ikki bolalar o‘rtasida alohida mavqeni egallagan. Qolgan ikki bola birlashib unga qarshi noroziliklarini ifodalashdi, uning oldingi ayblari va ularga qilgan umumiy xarakterda- gi yomonliklarini eslashdi. Tadqiqotchi hodisani o‘zgartirishi va g‘oliblik boshqa bir bolaga berilishi zahotiyoyq bolalar o‘rtasida juda tez qayta

guruhashish yuz berdi — yangi yutuvchi bola ham psixik tan olinmaslik vaziyatiga tushib qoldi. Yutqazgan bolaga g‘olib bola bilan dardini baham ko‘rish, xursandchili- giga qo‘shilish qiyin bo‘ladi. Bu bilan birga ba’zi bir bolalar hamdardlik hissiga ega bo‘lishlari mumkin. Muvaffaqiyatli bola bilan muvaffaqiyatsiz bolada alohida do‘stona holat paydo bo‘ladi: bu vaziyatda barcha ishtirokchilar bir-birlariga nisbatan e’tiborliroq bo‘ladilar, yaxshilik tilaydilar. Biroq raqobatli vaziyatlarda bolalar ko‘p hollarda hasad, ko‘rolmaslik, mensimaslik, manmanlik kabi salbiy ko‘rinishlarni namoyon qiladilar. Boshqa birining yutug‘ini oldindan aytish uchun bola o‘ziga xos ramziy harakatlarni bajaradi. Bu harakatlar o‘ziga xos bola «sehr-jodu- si» orqali amalga oshiriladi: «Tushmaysan, tushmaysan!», «Xato! Xato!» kabi.

Tengdoshlar guruhidagi hissiy holat bola shaxsiyatining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bola qanchalik o‘zini tinch, qanoatlangan tutishi, qay darajada tengdoshlari bilan munosabat me’yorlarini o‘zlashtirishi bunga bog‘liq bo‘ladi.

«Yulduz»lar guruhdagi bolalar tomonidan chin yurakdan va samimiy yaxshi ko‘riladi. Bola hammani rom qilishi, vaziyatni tez baholashi va do‘stona harakatlari, nimani xohlashini bilishi, ik- kilanmasdan mas’uliyatni o‘ziga olishi, tavakkaldan qo‘rmasligi va hokazo orqali yulduzga aylanadi. Biroq ortiqcha mashhurlik- ka uchragan bolalar haddan ziyod o‘zlariga ishonib qo‘yadilar va manman bo‘lib qoladilar.

«Kamsitilgan», «ajralib qolgan» bolalar ko‘p hollarda o‘zlarini tengdoshlari tomonidan qiziqtirilmaydigan shaxs sifatida baho- lanadilar yoki kamsitilganini tan oladilar. Bunday bolalarda alam to‘planib qolmaydi va ular guruhdagi hayotiy sharoitlarga nisbatan bosh ko‘tarmaydilar. Boshqa holatlarda bunday bolalar «yulduzlar» bilan xushomadgo‘ylik, sovg‘alar va so‘zsiz bo‘ysunish orqali yaqinlashish yo‘llarini qidiradilar. «Ajralib qolgan bola» tengdoshlari bilan muloqotga qoniqmaslikni his qiladi. Uning hislari o‘tkir bo‘ladi: u guruhdagi bolani o‘z shaxsiga nisbatan jasorati uchun yaxshi ko‘rishi hamda kamsitilganligi uchun yomon ko‘rib qolishi mumkin.

Qanday qilib «yakkalanib» qolgan bolalar guruhi yuzaga ke- ladi?

Bolalar hayotida o‘yin alohida o‘rin tutadi, ularning maqsadi esa o‘z kuchini sinab ko‘rish, o‘z qadr-qimmatini bilish tuyg‘usini shakllantirish, ya’ni, «Men uzoqqa sakray olaman!», «Men zo‘r menganman!», «Men hammadan ham uzoq tupura olaman!», «Men eng qo‘rmasman!». Shunday qilib bolalar davrasida bu kurashda o‘z muhitida tan olinishi shakllanadi. Bolalarning xo-tirjalmigi nafaqat bunga, balki qanday qilib ularga kattalar va shu bilan birga tengdoshlarining baho berishiga bog‘liq bo‘ladi.

«Ajralgan»lar bir qancha sabablarga ko‘ra shakllanishadi. Bir bola ketma-ket kasal bo‘ladi, kamdan kam hollarda bolalar bog‘chasiga boradi va bolalar unga odatlanishga ulgurishmaydi, shu bilan birga u ham hech kimni bilmaydi, u har doim yangi bola bo‘ladi. Boshqa bolaning jismonan kamchiligi, kirligi, bur-ni oqishi; semizligi, tez chopasligi sababli bolalar davrasiga qo‘shila olmaydi, uni qabul qilishmaydi.

Uchinchilari umuman bog‘chaga bormagan boshqa bolalar bilan muloqotda bo‘lmagan, muloqot qilish malakasi hamda o‘yin usullariga ko‘nikmasi yo‘q ular ham bolalar guruhiga qabul qi-linmaydi. Demak, bola «ajralgan» bo‘lishining sababi: birinchidan ijtimoiy rivojlanish to‘liq amalga oshmaganligi. Bolaning gu-ruhda tan olinmaganligi, o‘z tengdoshlari tomonidan yordam ololmasligi va ular ko‘pincha o‘taketgan xudbin, odamovi, uzoq- lashgan bo‘lishadi. Bunday bola arazlaydi va noliydi, maqtanchoq va o‘z ustunligini ko‘rsatishga harakat qiladi, mug‘ombirlik qila-di va yolg‘on ishlatadi. Bunday bolalar o‘zini yomon his qiladi va u bilan birga bo‘lgan boshqa bolalar ham o‘zlarini yomon his qi-ladilar. Bu ijtimoiy kasallik surunkali holatga, shaxsning ijtimoiy tarkibiy qismiga aylanmasligi kerak. Bolaga o‘zining tengdoshlari orasida tan olinishiga yordam berish kerak. Shunday ijtimoiy terapiya o‘tkazish lozimki, bolaning noto‘g‘ri rivojlanayotganligini oldini olish, bolaning faolligini shakllashtirishni osonlashtirish imkon mavjud bo‘lsin.

Ijtimoiy terapiya hozirgi holatda ikki asosiy vaziyatdan kelib chiqishi kerak. Birinchidan, bolalar jamoasida shunday ma’lum bir ijtimoiy mikroiqlimni yaratish kerakki, har xil mashqlarni tanlash, har bir bola o‘zining talabini tan olinishini o‘zlashtirishi kerak. Ikkinchidan, ajralib qolgan bolalarning ijtimoiy

muloqotga kirishish ko‘nikmasini alohida rivojlantirish kerak. Albatta, bolaning qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyati kattalar tomonidan rag‘batlantirilishi doimiy bo‘lmaydi. O‘z tengdoshlari bilan har kungi muloqot sharoitida bolaning haqqoniy yutug‘i bilan mus- tahkamlanishi lozim.

Bolalarning o‘zaro munosabatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, guruhda sog‘lom ijtimoiy munosabat muhitini yaratish, guruhdagi turli bolalarni tenglashtirish uchun tarbiyachidan katta ko‘lamdagi ish talab qilinadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. **M.G. Davletshin, Sh. Do‘stmuhamedova, M. Mavlono, S. To‘ychiyeva.**

Yosh davrlari va pedagogic psixologiya (o‘quv-me- todik qo‘llanma). TDPU, — T.: — 2004.

2. **Z. Nishanova.** Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent — 1998.

3. **M. Rasulova, D. Abdullayeva, S. Oxunjonova.** Bolalarning mакtabga psixologik tayyorligi. — Toshkent. — 2003.

4. **S.X. Jalilova va boshqalar.** Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. — Toshkent. — 2009.

5. Melikboboyevich, S. U., Abdukarimovich, Y. T., & Erkinovich, N. S. (2023). THE ROLE OF FAMILY VALUES IN THE PREVENTION AND ELIMINATION OF CHILD AGGRESSIONESS IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI*, 3(11), 275-277.

6. Melikboboyevich, S. U., & Abdukarimovich, Y. T. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN THE TREATMENT OF PERSONAL AGGRESSION. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSİYALAR*, 1(3), 26-30.

7. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, 9, 1-4.

8. Abdukarimovich, Y. T., & Melikboboyevich, S. U. (2022). FORMING A RESPONSIBLE ATTITUDE TO THE FAMILY IN YOUNG PEOPLE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 653-657.

9. Melikboboyevich, S. U., Abdukarimovich, Y. T., & Toshmamatovich, N. J. (2024). WAYS TO ELIMINATE THE AGGRESSIVENESS OF THE ATHLETE RECEIVED SPORTS TRAINING. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(6), 68-73.
10. Melikboboyevich, S. U., Abdukarimovich, Y. T., & Xayrullo o'g'li, R. S. (2024). WAYS TO ELIMINATE THE AGGRESSIVENESS OF THE ATHLETE BEFORE THE SPORTS COMPETITION. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(17), 271-275.
11. Melikboboyevich, S. U., & Muxammadiyevich, B. M. M. (2024). INFLUENCE OF AGGRESSIVE CASES OF DEPUTY DIRECTORS OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON WORK ACTIVITIES. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(6), 120-125.
12. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). EDUCATOR'S SKILL IN ELIMINATING AGGRESSIVE SITUATIONS OF CHILDREN RAISED IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 611-616.